

CHET TILLARI NIMA UCHUN O'RGANILADI



Parijga sayohat

– Uch haftadan keyin Parijga boramiz! – dedi Malikaning dadasi.
– Qoyil! – xursandlikdan baqirib yubordi Malika bilan Zarina. – Parijga borarkanmiz!

– Eh, men ham bir paytlar Parijga borganman... – dedi buvisi. – Kruassanlar, kashtanlar, Luvr, sohil bo'ylari... Juda chiroyli joylar. Xo'sh, kim fransuz tilini o'rganyapti?

– Malika! – dedi Zarina. – Men esa ingliz tilini o'rganyapman.

Malika bilan Zarina bir sinfda o'qiydi. Malika fransuz tilini o'rganyapti. Uning orzusi – o'qituvchi bo'lish. Zarina esa ingliz tilini va dasturlashni o'rganyapti.

– Yaxshiyam opang fransuz tilini o'rganayotgan ekan, – dedi buvisi. – Parijda senga tarjimon bo'ladi.

– Tarjimon kerakmas, – dedi Zarina. – Mana qarang, telefonimda onlayn tarjimon dasturi bor. Har xillari bor, hatto ovozimni eshitib ham tarjima qilib beradi. Men bir gap aytsam, shu zahoti tarjima qiladi.



– Dasturning tarjimasi har doim ham yaxshi chiqavermaydi, – dedi Malika. Lekin sinab ko'ramiz.

Malika bilan Zarina Parijga boriladigan kunni sabrsizlik bilan kutishdi. Buvisining maslahati bilan Malika Zarinaga “salom”, “rahmat”, “marhamat”, “kechirasiz” kabi eng kerakli fransuzcha so'zlarni o'rgatib qo'ydi.

– Chet ellik mehmon bir-ikki og‘iz bo‘lsa ham borgan joyidagi xalqning tilini bilsa, juda yaxshi bo‘ladi, – dedi buvisi.

Oradan uch hafta o‘tib, “O‘zbekiston havo yo‘llari” samolyoti Parijdagi “Sharl de Goll” aeroportiga qo‘ndi. Malika bilan Zarina ota-onasi bilan aeroportning kattakon zaliga kirib, yuklarni olishdi. Chegarada hujjatlar tekshirilgach, dadasi shunday dedi:

– Qani, endi bir musobaqa o‘ynanglar-chi! Manavi yozuvlarni tarjima qilib, kim bizni birinchi bo‘lib metroga olib chiqa oladi?

Opa-singil birdaniga musobaqaga kirishib ketishdi. Malika hamma so‘zlarni birpasda tarjima qildi. Zarina esa telefonidagi tarjimon dasturining kamerasini o‘sha yozuvlarga qaratib tarjimini bilib oldi.

Yigirma daqiqadan keyin hammalari Parijga boradigan metroga chiqib olishdi. Dadasi musobaqaning natijasini sarhisob qilar ekan shunday dedi:

– To‘g‘ri, til bilgan kishi ko‘proq odam bilan gaplasha oladi, imkoniyatlari kengroq bo‘ladi. O‘zga yurt insonlari bilan erkin muloqot qilish imkonini beradi. Biroq safarda onlayn-tarjimon ham kerak bo‘ladi, chunki inson dunyodagi barcha tilni o‘rganib olishi qiyin.

– Buving doim aytadilar-ku, – dedi onasi. – Har bir til o‘zga yurt madaniyatining darvozasiga kalitdir. Bunday kalitlaring qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi.

Parijdagi bir hafta juda tez o‘tib ketdi. Qizlar ota-onasi bilan shaharni rosa aylanishdi, do‘konlarga, qahvaxonalarga kirishdi. Qayerga borishsa, Malika offitsiantlar, gidlar, sotuvchilar bilan fransuz tilida bermalol gaplashardiki, Zarinaning havasi kelardi.

– Uyga qaytaman-u, fransuz tilini o‘rganishni boshlayman, – dedi Zarina.

– Sen esa inglizchani o‘rganishni boshla. Buvim menga bir sirni ochdilar, yaqinda Londonga borarkanmiz!



1. Qizlar chet tillarini nima uchun o‘rganayotgan edilar?
2. Xorijiy tillarni bilgan odamning oldida qanday imkoniyatlar paydo bo‘ladi?
3. Onlayn-tarjimon til biladigan insonning o‘rnini bosa oladimi?
4. Onlayn-tarjimonning qanday foydasi bor?



Zamondan o'zgan ma'rifatparvar



Bundan yuz yil avval mashhur ma'rifatparvarlardan biri Is'hoqxon Ibrat chet tillarini o'rganish zarurligini ta'kidlagan edi. Is'hoqxon Ibrat yoshlar ta'lim, ilm-fan, madaniyat va texnika sohalaridagi yangiliklarni shu yo'l bilan o'zlashtiradi deb hisoblagan.

Ibrat 25 yoshida Makkai Mukarramaga, haj safariga otlandi. Hajdan qaytishda Istanbul, Sofiya va Rimga borib, u yerdagi xalqlarning madaniyati va an'analari bilan tanishdi. U uzoq vaqt Kobul (Afg'oniston) va Jidda (Saudiya Arabistoni) shaharlarida istiqomat qildi. So'ng Hindistonga kelib, Mumbai va Kalkuttada

yashadi. Bu yerda yana to'rt tilni – arab, fors, hind-urdu va ingliz tilini mukammal o'rgandi.

Is'hoqxon Ibrat "Lug'ati sitta as-sina" ("Olti til lug'ati") deb nomlangan kitob yozib, unga arab, fors, hind, turk, o'zbek va rus tillaridagi juda ko'p so'zlarni kiritdi. Olti tillik lug'at tuzish nihoyatda murakkab ish bo'lsa-da, bir necha tilni mukammal bilgan olim bu ishning uddasidan chiqdi.

Bu lug'at barcha yangi maktablarda rus, arab, fors va boshqa tillarni o'rganish uchun asosiy darslik bo'lgan.



1. "Til bilgan elga manzur" maqolini qanday izohlaysiz?
2. Inson hayotida chet tillarini bilish qanday ahamiyatga ega?



Chet tilini tez va oson o'rganib olish, yangi so'zlarni yodlash bo'yicha tavsiyalar ro'yxatini tuzishga harakat qiling.



Bir tilni o'rgansangiz, shu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyatini ham o'rganasiz. Ko'p til bilish ulkan imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Til o'rganish – nafaqat o'zini kamolotga yetkazish balki muloqot imkoniyati hamdir.

Yer yuzida tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish tillarga bog'liq desa ham bo'ladi. Muammolarni faqat til yordamida hal qilish kerak.



Xorijiy tillarni o'rganish – rivojlanishning yaxshi usulidir. Chet tilini o'rganayotgan insonlarning xotirasi kuchli bo'ladi, diqqatini bir joyga jamlay oladi.



O'zbekiston maktablarida ta'lim 7 ta (o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman) tilda olib boriladi.



Bolaligimdan ingliz tilini chuqur o'rganish menga kelajakda xalqaro miqyosda o'z kasbimning ustasi bo'lib yetishib, futbol bo'yicha jahon chempionatlarida hakam sifatida ishtirok etish imkonini berdi. Bugun ingliz tilini yaxshi bilganim uchun dunyoning 80 dan ortiq mamlakatida hakam bo'lib ishlashim mumkin.

Kelajakda yutuqlaringiz bilan faxrlanish uchun o'qing, o'z ustingizda tinmay ishlang.

Ravshan Ermatov,
jahon chempionatlarining rekordchi hakami, O'zbekiston futbol
assotsiatsiyasining birinchi vitse-prezidenti.